

YATANPARVARLIK – INSONIYLIKNING ENG MUHIM FAZILATI SIFATIDA

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

ПАТРИОТИЗМ КАК ВАЖНЕЙШАЯ ДОБРОДЕТЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Жураев Сардор Холмуминович

*Соискатель института повышение квалификации МВД
Республики Узбекистан*

PATRIOTISM AS THE MOST IMPORTANT VIRTUE OF HUMANITY

Juraev Sardorbek Kholmuminovich

*Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan*



[sardorbekjurayev147@
gmail.com](mailto:sardorbekjurayev147@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun mohiyati yoritilgan. Vatanni sevish uchun bag'rikenglik kerak. Bunday bag'rikenglik insonni haqiqiy jasoratga, kerak bo'lsa jonini fido qilishga tayyorlaydi. Bugungi kunda har tomonlama mukammal ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli quroq vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tuyg'usi, urf-odat, meros, ma'naviyat, jasorat, globallashuv jarayoni.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятия патриотизма. Чтобы любить свою родину, нужна толерантность. Такая толерантность готовит человека к настоящему мужеству, даже к жертве своей жизнью, если это необходимо. Сегодня духовность является самым эффективным и мощным оружием в воспитании сотрудников правоохранительных органов в патриотическом духе.

Ключевые слова: патриотизм, традиция, наследие, духовность, мужество, процесс глобализации.

Abstract: This article sheds light on the essence of the concept of patriotism. To love one's homeland, one needs tolerance. Such tolerance prepares a person for true courage, and if necessary, to sacrifice one's life. Today, spirituality serves as the most effective and powerful weapon in educating all-round excellent internal affairs officers in the spirit of patriotism.

Keywords: patriotic feeling, tradition, heritage, spirituality, courage, globalization process.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Insoniyat taraqqiyotga erishib borgani sari harbiy quroq-yarog'larning eng zamонавиyl turlarini ishlab chiqish, odamlarni ommaviy qirg'in barot qilishga mo'ljallangan va ona Yerni bir lahzada butkul yo'q qilib yuborishga qodir qurollarning yaratilishi mamlakatlar o'rtaida o'ziga xos "qurollanish poygasi"ni keltirib chiqargani tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Keyinchalik, davlatlarni

asta sekin ichidan yemiradigan, taraqqiyotini butkul tanazzulga uchratadigan, odatiy ya'ni, ochiq quroq bilan hujum emas balki mafkuraviy urushlar ko'rinishi ham yuz bera boshladiki bugun bunday mafkuraviy urushlarning chek chegarasi ulaning xavf-u xatari qamrab olgan hududlarni oldindan bilish va yetarli choralarни ko'rish mushkul vaziyatga aylanib bormoqda. Bunday urushlardan himoyalanishning yagona yo'li yosh avlodni ilm-

ma'rifat, o'zlikni anglash orqali ona Vatanni sevish va vatanparvarlikka o'rgatishdir.

Yurtimiz uzoq yillik, asrlarga ta'tigulik tarixga ega. Yurtimizning doimiy go'zal tabiat, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi dunyonи o'ziga rom etib kelgan. Shu boisdan ham qadim Turon zaminni qo'lga kiritish barcha yashirin kuchlarning azaliy orzusi bo'lib uni amalgaloshirishda har qanday vaziyatdan foydalanishga tayyor kuchlar borligini ham unutmasligimiz darkor. Ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz yaratgan milliy madaniy merosni asrab avaylashimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Insoniyat tarixida ko'plab suronli jang-u Jadallar, vatan ozodligi uchun olib borilgan kurashlar bo'lganligi ko'plab tadqiqotlarda tilga olingan. Bu jang-u Jadallar tufayli millionlab insonlar, katta-yu kichik shaharlar, aksariyat hollarda davlatlar ham yo'q bo'lish darajasiga kelib, aksariyat hollarda tinch aholi qurbon bo'lganligi sir emas. Urushlar tufayli mamlakatlar iqtisodiyoti izdan chiqib, uzoq yillar davomida shakllangan millatlar tarixi, dini, milliy madaniy urf-odatlari va merosga yakun yasalgan.

Vatanparvarlik tuyg'usi bu kishilarning kindik qoni to'kilgan o'z ona Vataniga, muhabbat va sadoqatini namoyon etadigan tushunchadir. Vatanparvarlik tuyg'usi insoniyat, barcha xalqlar va millatlar uchun asrlar davomida sayqallanib kelgan oliv, umuminsoniy his-tuyg'ulardan biridir. Vatanparvarlik insonlarning o'z oshiyoni, kindik qoni to'kilgan yurt taqdirla mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda o'z vatanining o'tmishini va buguni bilan faxrlanish, har jabhada Vatan manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Zero, Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan [1].

Vatanparvarlik insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joyi, zamin, maskaniga bo'lgan mehrmuhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma'naviy xislatlari va fazilatlaridir. Fidoiylik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanib, uning oliv ko'rinishi jasoratdir.

Insoniyat taraqqiyotga erishib, ilm-fan taraqqiy etib borgani sari, mafkuraviy poligonlar va axborot xurujlarining ortib borishi insonlarning ongu tafakkurini o'zgartirish, ma'rifatli dunyonи barpo etish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bunday tahlikali

vaziyatda xalqlarning birdamligi millat kelajagini belgilovchi asosiy vosita ekanligini anglashimiz zarur. Zero bugungi kunda nega ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba'zan yaltiroq qog'ozga o'rab, ba'zan ochiqchasiga o'z niyatlarini bayon etayotganlarning chiqishi misolida guvoh bo'lyapmiz.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'yan bugungi kunda xalqimiz, yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirishni alohida qayd etmog'imiz darkor [2].

Vatanni sevish hissi bizga begona emas. Vatan uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida tillarda doston bo'lib kelishgan. Masalan, Chingizxon zulmiga qarshi Jaloliddin Manguberdi jasorati, Amir Temur shijoati, jadidlarimizning begunoh to'kilgan qoni, Abdulla Avloniyning so'z erkinligi uchun fidokorligi, Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlarni ilmli qilish, savodini chiqarish, chet tilini o'rgatish haqidagi pandu-nasihatlari haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuni unutmaslik kerak-ki, bu shijoatu jasoratlarning tag zamiri o'z manfaatini ko'zlash emas, balki ona Vatan istiqboli uchun vatanparvarlik qilish o'z jonini fido qilib bo'lsa-da, uning kelajagi traqqiy etishi uchun xizmat qilish edi.

Vatanparvarlik buyuk tuyg'u ekan, Vatan har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda mavjulanar ekan, vatanparvarlik bayrog'ini baland ko'tarib, Vatanni sevishni faqatgin so'zda emas amalda ham isbotlashimiz lozim. Jamiyatning barcha bo'g'lnari, ayniqsa, xizmat lavozimida belgilangan barcha vazifalarni sidqidildan bajarish, taraqqiyotimizga hissa qo'shishi kamchiliklarni to'ldirish orqali millat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish, fuqarolik mas'uliyatini oshirish, davlat va jamiyatda qabul qilgan har bir qonun va me'yoriy hujjatlarga so'zsiz bo'yishish, haqiqiy vatanparvarlikning tamoyillaridandir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Xalqimizda vatanparvarlik tuyg'usi milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda qo'llanilgan. Vatanparvarlik tuyg'usi xalqimizning moddiy madaniyatining ifodasi bo'lsa, milliy qadriyatlarimiz shu Vatanning ma'naviy ramzi, timsolidir. Suronli yillar davomida shakllangan va bosqichilar davridan onom chiqib milliy xususiyatlarini saqlagan holda,

zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday milliy madaniyatimizning bardavomligi ana shunday vatanparvarlik tuyg'usi bilan hamohangdir. Shu boisdan vatanparvarlik tuyg'usi umrboqiyidir. Vatanparvarlik tuyg'usi esa faqat so'zda emas, amalda namoyon bo'lib vatanni sevish, ardoqlash tufayli sodir bo'ladigan ruhiy-axloqiy kechinmadir. Bugun yurtemizda 130 dan ortiq millat istiqomat qilar ekan, bu millatlar va xalqni birlashtiradigan, ularni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan burch bu vatanparvarlik burchidir.

Vatanni sevmoq, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo'lish har bir insonning ma'naviy-axloqiy mas'uliyatidir. Buyuk o'zbek adibi Alixonto'ra Sog'uniy Vatan va vatanparvarlik tuyg'usi xususida yozar ekan, "har bir kishining beshta muqaddas narsasi, ya'ni Vatani, dini, moli, oilasi, joni bo'lishi lozim. Biz, shu Vatan ahlimiz. Bu O'zbekiston Vatanimizning bir qatlami biz — o'zbek xalqi otabobolarimizning suyaklari bilan ko'tarilmishdir. Demak, bo'ynida ko'targan, qo'ynida saqlab, oq sut berib tarbiyat qilgan bu O'zbekiston – Turkiston bizning o'z ona Vatanimizdir" deb ta'kidlagan [3: 4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Bugun tinchliksevar insoniyat ma'rifatli dunyonı istaydi. Ma'rifatli dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muholifatlar o'rtasida ma'naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma'naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit'ada joylashgani, aholisi soni, ijtimoiy yo'nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dinidan qat'i nazar, mamlakatlar, xalqlarning o'zligini hurmat qilish, umumiyoq taraqqiyot yo'lida maqsadlarini uyg'unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Vatanni sevish uchun katta qalb lozim. Bunday qalb doimo insonni haqiqiy jasoratga undaydi va uni Vatan yo'lida hech narsadan tap tortmaslikka kerak bo'lsa, jonini fido qilishga tayyorlaydi [4].

Vatanparvarlik tuyg'usi har bir insonda shakllanib borar ekan o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan Vatani oldidagi farzandlik, fuqarolik burchini shakllantiradi. Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to'g'risida she'r yozish, qo'shiq kuylash, chiroqli gapirishgina emas, amalda ko'rsatish uning rivoji uchun o'z manfaatlaridan kechishdir. Vatanparvarlik borasidagi g'oyalar odamlarning avval sog'lom e'tiqodiga, so'ng amaliy

harakatiga ta'sir etib, shu Vatanning ravnaqi uchun moddiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ruhiy holatida aks etishi lozim.

Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarni ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlar, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mayjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o'z ongiga singdiradi. Chunki, vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir [5].

Bugungi dunyoda vatansizlikni, vatanfurushlikni targ'ib etayotgan tahdidlar tobora ko'payib borayotgan, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar o'zlarining aniq maqsadlarini chiroqli gaplar, bilim saviyasi past, tajribasiz kishilarga xush yoqadigan jozibali qoliplarga solib talqin etayotgan bir sharoitda o'zlikni, Vatanni saqlab qolish va bu yo'lda yuksak vatanparvarlik namunalarini ko'rsatish eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, Vatan sha'ni, millat ornomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil ichki ishlar organlari xodimini tarbiyalashda ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurol vazifasini o'taydi. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda uning jamiyat bilan munosabatlari, dunyoqarashi, axloqi, olamga, odamga, o'ziga nisbatan tasavvurida namoyon bo'lar ekan, u insonda yuksak ma'nodagi vatanparvarlik hissini uyg'otib, uni ma'naviy oziqlantirib, uni sog'lom e'tiqodga otlantruvchi kuchga aylanadi. Ushbu tuyg'u insondonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lsa-da, uning o'zi va jamiyatdagi munosabatlarini mustahkamlash, yosh avlodga total faoliyatda o'rnatish bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ahamiyatlidir.

Biz kelajak avlodning, xususan, ona Vatan xizmatiga bel bog'lagan bo'lajak ichki ishlar xodimlari ongiga o'z yurtiga muhabbat tuyg'usini singdirmog'imiz, zarurat tug'ilganda mamlakatimizni jon jahdi bilan himoya qiladigan haqiqiy vatanparvar xodimlarni tarbiyalamog'imiz lozim. Zero, ularda vatanparvarlik tuyg'usi qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanning uzviy qismi bo'lib qolish, uning uchun jonini fido qilish, butun xalqni o'z

oиласини himoya qilgандек asrab-avaylash hissi shunchalik kuchli bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2016-yil 20-avgust). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

2. Usmonov K. O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2017. – B. 52.

3. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. Arab imlosidan kirillga o‘tkazib nashrga tayyorlovchilar: Ahadxonto‘ra G‘apporov Uvaysxonto‘ra Shokirov. https://kutubxonachi.uz/media/books/turkiston-qaygusi_kutubxonachi.uz.pdfyu Kutubxonachi.uz - @KutubxonachiUz. - B. 100.

4. A.Mavrulov. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? Yangi O‘zbekiston gazetasi, 28-fevral, 2024. <https://yuz.uz/news/vatan-nima-vatanparvarlik-chi>

5. Akramova Sh. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashning dolzarb masalalari. T.: «Ma’naviyat», 2018. – 31 b.

